AQSAD MUXTOR HIKOYALARINING MAVZU VA G'OYA MUNDARIJASI

O'ng'alova Zulayho Xolboy qizi
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti magistranti

Qabul qilindi: 02.11.2025
Ko'rib chiqildi: 03.11.2025
Tasdiqlandi: 04.11.2025

Kalit so'zlar.
Asqad Muxtor, hikoyalar to'plami, hikoya mavzusi, hikoya g'oyasi, insonparvarlik, tinchlik, tarixiy mavzular, shaxsiyat

Annotatsiya. Ushbu maqolada Asqad Muxtor ijodining bir qismi bo'lgan hikoyalarga to'xtalgan. Adib hikoyalarining mavzuviy turlari aniqlangan. Adib tomonidan yaratilgan hikoyalarning mavzulari tanlanishi, ularning badiiy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Hikoyalarning asosiy badiiy g'oyasi, ahamiyatini aniqlashtirishga harakat qilindi. Maqolada adib maqolalaridan bir nechtasi tanlab olingan. Jumladan; "Qora domla" va "Fan ova Baqo", Dunyo bolalari hikoyalar to'plamidagi ba'zi maqolar orqali mulohaza yuritilgan.

Ключевые слова:
Аскад Мухтор, сборник рассказов, тема рассказа, идея рассказа, гуманизм, мир, исторические темы, личность

Аннотация. В данной статье рассматриваются рассказы, являющиеся частью литературного наследия Аскада Мухтора. Определены тематические разновидности его рассказов. Анализируются выбор тем в созданных писателем рассказах и их художественная значимость. Сделана попытка уточнить основную художественную идею и значение произведений. Для анализа выбраны несколько рассказов писателя. В частности, размышления основаны на таких произведениях, как «Қора домла» (Чёрный учитель), «Фано ва бақо» (Тлен и вечность), а также на некоторых материалах из сборника рассказов «Дунё болалари» (Дети мира).

Keywords:
Asqad Muxtor, collection of stories, story theme, story idea, humanism, peace, historical themes, personality.

Annotation. This article focuses on some of the short stories that are part of Asqad Muxtor's literary work. The thematic types of the author's stories are identified. The selection of topics in the stories created by the writer and their artistic significance are discussed. An attempt is made to clarify the main artistic idea

and importance of the stories. Several of the writer's short stories have been selected for analysis in the article. In particular, reflections are made based on works such as "Qora domla" (The Black Teacher), "Fano va Baqo" (Perishability and Eternity), and some articles from the short story collection Dunyo bolalari (Children of the World).

O‘zbek adabiyotida hikoya janri yuz yildan ziyod taraqqiyot bosqichini bosib o‘tdi, bu janrning o‘ziga xos xususiyatlari, janr rivojida alohida adabiy maktablar yaratgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad, Odil Yoqubov, Pirimqul Qodirov, O‘lmas Umarbekov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzaev, O‘tkir Hoshimov, Xayriddin Sulton, Erkin A’zam, Ahmad A’zam, Shoyim Bo‘taev, Normurod Norqobilov kabi o‘nlab hikoyanavislarning badiiy mahorat masalalari bir qator dissertatsiya va monografik tadqiqotlarda jiddiy o‘rganildi [8:27].

“Yozuvchi sayoz joyda cho‘kadi”, –deyiladi Asqad Muxtorning tundaliklarida [2:272]. Yozuvchining bu fikrida teran va chuqur hikmat bor. Yirik nasriy asarlari bilan katta e’tibor topgan yozuvchining o‘zbek hikoyanavisligi taraqqiyotida o‘rni qay darajada? Ushbu masala bir paytlar ayrim adabiyotshunoslar e’tiborini jalb etgan bo‘lsa ham, bu borada hali salmoqli tahlillar va tadqiqotlar yaratilganicha yo‘q. Asqad Muxtor yirik epik polotnolarga qo‘l urishdan avval hikoyalar yozgani va keyin ham hikoya yozishda davom etganini bilamiz. Holbuki, adib hikoyalari ham badiiy tafakkurning yorqin ko‘rinishlari sifatida qissa va romanlari bilan bemalol bo‘ylasha oladi. Zero, Asqad Muxtor kichik janr misolida ham “sayoz joyda cho‘kish” xavfidan o‘zini saqlagan. Adib yaratgan bir qator hikoyalar o‘zbek hikoyachilik taraqqiyotini yanada boyitdi. Xususan, Asqad Muxtorning yuksak professional qalam bilan yozilgan “Dog‘”, “Xonimning tug‘ilgan kunlari”, “Fano va baqo”, “Ko‘k tosh”, “Insonga qulluq qiladurmen”, “To‘qqizinchi palata”, “Qora domla”, “Jinni”, “Chodirxayol” hikoyalari ko‘plab adabiyotshunoslarning bahs va munozaralariga sababchi bo‘ldi.

Asqad Muxtor hikoyalari kitobxonlar yoshi nuqtai nazaridan ikkiga bo‘linadi. Bular: kattalar uchun yozilgan hikoyalar va bolalar uchun yozilgan hikoyalardir

Rus yozuvchisi Maksim Gorkiy temani adabiyotning ikkinchi unsuri (elementi) deb ataydi va shunday ta’riflaydi: "Tema avtor tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o‘zi ko'rsatib bergan, ammo hozircha avtor tasavvurida hali to‘la–to‘kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalantirishni talab qilib. avtorda ishlashga mayl uyg‘otadigan g‘oyadir ". Ushbu ta’rifdan ham ma’lum bo'lyaptiki, tema va g‘oya – bir butun, yuqorida ko‘rganimiz mazmun

shakl kabi (tema g'oyaning ichida, g‘oya mazmunning ichida yashaydi; yaxlit hodisadir.

Adabiyotshunoslikdagi fikrlarni umumlashtirsak, badiiy asar mavzularini uchga ajratish mumkin:

1. Adabiy mavzular. Insoniyatga xos bo‘lgan barcha fazilat–u qusurlar(sevgi– muhabbat, mehr–oqibat, vafo–sadoqat, shodlik va quvonch, g‘am va qayg‘u qasos, rashk, o‘lim, saxiylik va baxillik, baxt–u baxtiyorlik, matonat va shijoat, mehrli tabassum–u yolqin nigoh, ehtiros, sog‘inch, chanqoqlik , jo‘shqinlik va h.) adabiy mavzulardir. Shu sababdan Oskar Uayld “Dorior Greyning portreti”(“ Jahon adabiyoti ”, 2000 y, yanvar)asarida topib aytadi “ Fikr va so‘z san’atkor uchun san’at vositasidir. Illat va fazilat – uning ijod uchun materialdir “. Bu xulosa hamma davr adabiyotlari uchun tegishlidir.

2. Tarixiy mavzular. Tarixdan, o'tmish (moziy)dan tasvir predmetiga material tanlash va shu asosda zamondoshlarning diqqatini qiziqtirgan eng zarur muammolarga javob izlash – bosh xususiyat kasb etadi. Jumladan “ Navoiy “ *(Oybek),* “ Yulduzli tunlar “. Bobur (*P.Qodirov*), “ Ulug‘bek xazinasi “ *(O.Yoqubov)* uzoq tariximizni yoritsa, “ 0’tkan kunlar “ *(A.Qodiriy).* “ Kecha va Kunduz “ *(Cho‘lpon),* “ Qutlug‘qon “ *(Oybek)* –yaqin o‘tmishimizni gavdalantiradi.

3. Zamonaviy mavzular. Bugungi zamondan, aniq bosqich – istiqlol davri kishilarining hayotini tasvirlash va shu orqali hayotdan dars berish – zamonaviy mavzularga xos bosh xususiyatdir. Bugun Istiqlol talabiga monand komil kishilarni – fikrlovchi, tadbirkor, el–yurt uchun kuyib, yonib yashovchi, adolat va haq uchun kurashuvchi qahramonlarni tasvirlash, ularning murakkab obrazlarini yaratish –zamonaviy mavzularning kashfiyotlari bilan bog‘liq [11:264].

Asqad Muxtorning yuqoridagi mavzularda yozgan asarlari bir talay.Adibning har bir mavzuda yozgan asarlarida hayot haqiqatlari ishonarli aks etadi.Inson o‘zi uchun nimadir kashf etadi.

Adibning jami qirqqa yaqin hikoyalarini mavzu va g‘oya jihatdan tasniflashtirib o‘rganadigan bo‘lsak, quyidagi manzara paydo bo‘ladi:

1. Sanoat mavzusi va sanoat ishchilari haqidagi hikoyalar (“Janjalkash”, “Kurtak”);

2. Ijtimoiy–maishiy mavzudagi yangi o‘zbek ayoli qiyofasi aks etgan hikoyalar (“Qanot juft bo‘ladi”, “Dog‘”, “Xayri”, “Hayotga chaqiriq” “Safarali”);

3. Urush mavzusi bilan bog‘liq hikoyalar (“Oksana”, “Sherbekning arg‘umog‘i”);

4. Tarixiy mavzudagi hikoyalar (“Insonga qulluq qiladurmen”, “Ko‘k tosh”);

5. Ijtimoiy voqelikning fojeiy talqini etakchilik qiluvchi psixologik hikoyalar (“Fano va baqo”, “To‘qqizinchi palata”, “Xonimning tug‘ilgan kunlari”, “Jinni”, “Taqdir kimning qo‘lida”, “Qora domla”, “Atir”, “Kechiring meni, odamlar”, “Men hayotni o‘rganaman”, “Makruh”);

6. Ijtimoiy voqelikka ramziy ishora beruvchi hikoyalar ("Chodirxayol", "Arvoh");

7. Satirik hikoyalar ("Ikki portret", "Labbay, choymi", "Yo'l–yo'lakay gaplar", "Nordon satrlar", "Quruq gap quloqqa yoqmas");

8. Xotira hikoyalar ("Qodiriyni ko'rganman–u", "Omon qolgan odam", "Taft").

Asqad Muxtorning ilk ijodiy bosqichda yaratilgan "Insonga qulluq qiladurmen", "Dog'" hikoyalarida hayotni, xarakterlarni chuqur tahlil etishga kirishgani yaqqol seziladi. Shuningdek, keyingi davr hikoyachiligida yozuvchining obraz va xarakter yaratishdagi badiiy mahorati "Taqdir kimning qo'lida", "Qora domla", "Jinni"da ancha teranlashdi. Xususan, tilga olingan hikoyalarda ijtimoiy–psixologik tahlil bo'rtib ko'rinadi. Shu bois tadqiqotchi S.Matyaqubov o'z tadqiqotida Asqad Muxtorning so'nggi paytda yaratilgan hikoyalariga shunday baho beradi: "Hozirgi hikoyachiligimizda shaxsni ijtimoiy–psixologik planda tahlil qilish badiiy–estetik tadqiqotchilikning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Xususan, Asqad Muxtorning "Fano va baqo" hikoyasida ko'ngil deb atalgan o'ziga xos dunyoning bir ko'chasiga nigoh tashlanadi. Agar e'tibor bersak, adibning so'nggi yillardagi yaratgan hikoyalarida ("Fano va baqo", "Chodirxayol", "Jinni" va h.k.) fojeiy ohang kuchli. Konflikt va xarakterlarning fojeiyligidan tashqari badiiy talqindagi fojeiy ifoda yo'sini avvalgi izlanishlarida ko'rinmagan edi. Shuni nazarda tutmoq kerakki, ijtimoiy voqelikning o'zida yovuzlik g'ij–g'ij qaynab yotibdi. Uni haqqoniy ifodalash uchun dunyoning fojeiy ruhini aks ettirish lozim. A.Muxtor kishilarni hayotning shafqatsizligi oldida dovdirab esankiramaslikka da'vat qilayotgandek tuyuladi. Negaki, ko'ngildagi sanchiqlar, dilimizdagi og'riqlar qanchalik o'kinchli va alamli bo'lmasin, haqiqat, ezgulik va adolat undan baland turadi" [10:8] Haqiqatan ham A.Muxtorning "Fano va baqo", "Chodirxayol", "Jinni", va shuningdek, "Taqdir kimning qo'lida", "Qora domla" hikoyalarida fojiaviy ohang kuchli. Xususan, tadqiqotchi S.Matyaqubov "Fano va baqo" hikoyasini tahlil etar ekan, shunday xulosa chiqaradi: "Fano va baqo" hikoyasining fojiali falsafiy mag'zi asarning so'nggi jumlalarida aniq mujassamlashgan. Imonini kuydirgan, imonini yo'qotgan kimsalar kim o'zi? Odatda, jahon klassikasining fojeyaviy asarlari qahramonlarning o'limi bilan yakunlanar edi. A.Muxtor hikoyasidagi imonsiz Xolxo'ja ham, Ochil ham bir–birini tiriklay "bo'g'izladi", tiriklay "chavaqladi". Lekin har ikkisi ham tirik qoldi[13]. Tragediya janridagi katarsis holati, ya'ni qahramonlarning – ruhiy evrilishi, poklanishi asnolaridagi hayrat, qo'rquv, dahshat bugungi o'zbek hikoyachiligida psixoanaliz – ruhiyatlar badiiy tahlili tarzida zohir bo'layotir. A.Muxtorning "Fano va baqo" hikoyasida ana shu sifat o'zgarishining inkishofini ko'ramiz". Darhaqiqat, "Fano va baqo"dagi imonsiz kishilar obrazi beixtiyor "To'qqizinchi palata" hikoyasi qahramoni Hoji buvani, "Makruh" hikoyasidagi Sulton so'taklarni ham esga tushiradi. Imonsiz kimsalarning badiiy talqini bu hikoyalarda chuqur asoslangan.

Asqad Muxtor hikoyalarida yuz bergan yangi sifat o‘zgarishlarini hamda zamon muammolari va zamon qahramonlarini “Qora domla” va “Jinni” hikoyalari misolida ko‘zdan kechirish mumkin.

Birinchi hikoya qahramoni “Qora domla” degan laqabga sazovor bo‘lgan kishiga muallif bayonida shunday izoh beriladi: “Maktabning joni esa – Bolokapaning birdan–bir ziyolisi Qora domla. Bu laqab bo‘lmasa kerak, chunki u kishi uncha qora emas edilar, asli otlari Qoravoy bo‘lsa ehtimol, biz bilmadik, ishqilib katta–kichik hamma uni orqavarotdan Qora domla, o‘ziga esa Domla deguchi edi” [6:28] Qora domla nafaqaga chiqqach, Bolokapa qishlog‘ining Shovvasoyida buloq yopilib qolmasligi uchun, yo‘lovchilar, hamqishloqlari tiniq buloq suvidan to‘yib–to‘yib ichishi uchun toshdan zina quradi. Qora domla ne bir qiyinchiliklar, mashaqqatlar bilan barpo etgan buloq bo‘yida har kuni har xil dilni xira qiladigan ko‘ngilsiz voqealar sodir bo‘ladi. Jumladan, bir kuni “bir guruh yoshlar obod buloq labida ulfatchilik qilib, qattiq mushtlashishdan keyin, boshi shisha bilan urib yorilgan birovi kasalxonaga olib kelinganmish...” Ikkinchi ko‘ngilsizlik – “Kimdir Qora domlaning zinapoyasidan yiqilib, oyog‘ini sindirgan emish”[1;30].

Keyingi dilxiralik esa birinchi va ikkinchi voqeadan ham oshib tushadi. Ya’ni: “Markazdan kelayotgan bir taniqli oila quvnab–yayrab buloqdan suv ichib chiqsa, katta yo‘lda qoldirgan “Volga” mashinalari yo‘q emish. Taxminlarga qaraganda, bu xoli joyda shunaqalarni atay poylab chakalakzorda yotgan “shaytonlar” shartta haydab ketishibdi”. Qora domla odamlarga quvonch, yaxshilik istab qurgan zina va buloq boshida maishatbozlik, baxtsiz tasodiflar, o‘g‘riliklar shu qadar kundan–kun urchiydiki, oxirgi shumxabar Qora domlaning qaddini bukib tashlaydi. Bu xabar quyidagicha edi: “O‘sha haftaning o‘zida “Xronika” chashmada noma’lum bir qizni zo‘rlab ketishganini xabar qildi. Shundan keyin bir oycha tinch bo‘lib, domla endi o‘zimga keldim deb turganida, buloq atrofidagi butazordan o‘lik topildi. Qora domlaning bulog‘iyu zinapoyasi nohiyada odamlarning ko‘ngliga dahshat soladigan xavfli joyga aylandi”

Vaholanki, Qora domla buloq boshida bunday qabih ishlar urchishi uchun toshdan chiroyli zinapoya qurmagan edi. Uning tilagi, orzusi, odamlarga qulaylik yaratish edi. Taassufki, natija domla o‘ylagandek bo‘lib chiqmaydi, savobning mukofoti teskari tomonga ketadi. Qishloqdoshlari uni mazaxlab, uning ustidan kulishadi. Qaysidir ma’noda qahramonga laqab sifatida tanlangan “Qora” so‘zida o‘sha buloqboshidagi qora ishlarga ramziy ishora bordek, nazarimizda. Ammo bu nom aslo qahramonning fazilatini, xarakterini ochishga xizmat qilmaydi. Aksincha, “Qora” nomi qahramonning ezgu ishlariga, savob ishlariga teskari ma’no tashiydi. Mazkur hikoyani tahlil etgan adabiyotshunos O.Jo‘raboev shunday yozadi: “Atoqli yozuvchi Asqad Muxtor qalamiga mansub “Qora domla” hikoyasida bir umr o‘quvchilarga astoydil dars berib kelgan, saboq go‘zalliklariga oshno etgan o‘qituvchi timsoli aks etgan. Ammo u keksalik nafaqasiga chiqqach, odamlarda o‘zi haqida yaxshi taassurot qoldirish, bir yaxshi

ish bilan nom chiqarish uchun jismoniy og‘ir ishga qo‘l uradi”. Nazarimizda, adabiyotshunos O.Jo‘raboev bir tomonlama fikr yuritayotgandek. Chunki Qora domla yaxshi ish qilish orqali aslo nom chiqarishni rejalashtirmaydi. Hikoyada buloq boshini obod qilishni xayol qilgan qahramon o‘ylari o‘quvchilari bilan bo‘lgan suhbatida aks etadi: “ – Bunaqada, bir kun emas bir kun buloqning ko‘zi yumilib ketadi... – dedi u ma’yus ko‘zlarini narigi sohildan uzmay. – Yaxshilab pillapoya qilib qo‘yish kerak edi. Nima ko‘p – Shovvasoyda tosh ko‘p. Serqatnov yo‘l, o‘tgan–ketgan zinadan sakrab–sakrab tushib muzdek buloq suvida yuzini chayib, hordig‘ini tashlab, chanqoqbosdi qilib ketardi. Jumlai fuqaroga tatiydigan shirin buloq. Savobtalab bo‘lsang yo‘lovchiga bir piyola suv ber, deganlar... Afsus, Ispolkomning qo‘li kalta–da. Bekorchi bo‘lganimda o‘zimoq urinardim”[6:32]. Ko‘rib turganimizdek, Qora domla buloqboshini obod qilishni, odamlarga qulay sharoit yaratishni istaydi. Beta’ma bir ish qiladi. Hikoya echimi Sadr sangtaroshning quyidagi monologi bilan yakunlanadi: “– Yaxshilik qilding, savobini olding–ketding ekan–da? Yo‘q, undoq emas, Qoravoy og‘ayni, ovora bo‘lasan, savob degani yaxshi zamonlardan qolgan gap. Bizning kunlarda esa...”

Kuzatib turganimizdek, “Qora domla” hikoyasida fojiaviy ohang, shu bilan birga zamondoshlardan nolish ohangi etakchilik qiladi. Ya’ni, yomonlar ko‘payib, yaxshilar kam qolgan, degan bir hayotiy–falsafiy xulosa hikoyaning o‘zak matnida ko‘rinish berib turibdi. “Qora domla” hamda “Jinni” hikoyalari qahramonlari Qora domla va Halim domla obrazlari o‘rtasida, ularning qilgan xatti–harakatlarida tipologik o‘xshashliklar kuzatiladi. Xususan, har ikki qahramon ham domlalar. Har ikki domla ham odamzodga yaxshilik qilishni istaydi. “Jinni” hikoyasi 1993 yilda yaratilgan. Halim domla “Jinni” hikoyasi qahramoni.

Asqad Muxtorning ilk sinov sifatida yozilgan hikoyalaridan so‘ng yaratilgan “Dog‘”, “Insonga qulluq qiladurmen”, “Qora domla”, “Jinni”, “Fano va baqo”, “To‘qqizinchi palata” singari hikoyalarida teran psixologik tahlil ortdi. Xususan, bu tahlillarda ijtimoiy psixologizm kuchaydi. “Fano va baqo”da imonsiz odamlarning ikki tipik vakili achchiq istehzo bilan yaratilgan bo‘lsa, “To‘qqizinchi palata”da bir imonsiz cholga ikki imonli keksa mo‘ysafid chollar obrazi qarshilantiriladi. Binobarin, Hoji buva o‘z ismiga teskari ravishda imonsiz, xudbin shaxs. Bu shaxsga zid tarzda taqvodor chol va Hoji buvaning palatadoshi bemor Bahromov obrazlari yaratilgan. Asqad Muxtorning keyingi davrda yaratilgan asarlarida islomiy e’tiqodi butun inson obrazini yaratishga urinishlar yaqqol seziladi. Adib islom dinining ilg‘or gumanistik g‘oyalaridan ilhomlangan holda, hikoyalarida sifat o‘zgarishlar namoyon qila boshladi. Shuning uchun haqli ravishda yangi o‘zbek she’riyatining yorqin vakili Rauf Parfi Asqad Muxtor ijodiga mana shunday yuqori baho beradi: “Asqad Muxtor – XX asr o‘zbek–turk dunyosini butun fojialari–la, butun parvozlari–la mujassam qilgan buyuk adibdir. Asqad Muxtor ijodiyoti ko‘zgusida avliyo Zardo‘shtiy, Konfutsiy, Dao, Muhammad alayhissalom, Iso alayhissalom, Bahoviddin Naqshband

ta'limotlarining badiiy savlati yuz ko'rsatadi. Bu in'ikos u yoki bu darajada bo'lishidan qat'i nazar, Inson va insoniylik, Inson baxti uchun kurash g'oyasi bilan sug'orilgandir. Biz o'zimizning mayda, ikir–chikir tirikchilik girdobimizga qorishtirib fikr qilmaylik. Chunki bu girdob yuz yillar iztirob chekib tergan ma'naviy marjonlarimizni yutib yuborishga ham qodir"[12:169] Shu ma'noda Asqad Muxtor hikoyalarida Bahromov, taqvodor chol ("To'qqizinchi palata"), Qora domla ("Qora domla"), Halim domla ("Jinni"), shifokor Shodiev, shifokor Muslimov ("Dog'") kabi obrazlarining yaratilishi aslo tasodif emas. Ayni paytda ularga qarama–qarshi ravishda yaratilgan imonsiz odamlar obrazini yaratishi ham tasodif emas edi. Zero Ochil va Xolxo'ja ("Fano va baqo"), Hoji buva ("To'qqizinchi palata"), Saltanat ("Dog'") kabi imonsiz, xudbin kishilarning ramziy timsollari turli ijtimoiy qatlamdagi zamondoshlarimizning timsoliy obrazlari, tiplaridir. Shu bilan birga, yozuvchi hayotni kuzatdi, jamiyatdagi turfa qatlamlarni jiddiy kuzatib–o'rganib, mana shunday xilma–xil obrazlar yaratdi. Ular yomonmi, yaxshimi, bundan qat'i nazar, bizning zamondoshlarimiz ekanini his etamiz. Adib bunday razil odamlar obrazini tanqidiy nigoh bilan badiiy taftish etar ekan, ularning qiyofasini nim tabassum bilan, uncha achchiq bo'lmagan kinoyaviy nigoh bilan mahorat ila chizadi. Tabiiyki, Xolxo'jalar, Ochillar, Hoji buvalar, Saltanatlar tipidagi salbiy obrazlar kitobxonni g'azablantiradi. Ularning noinsoniy qiyofalari, g'ayriinsoniy qilmishlari har bir kitobxonni nafratlantiradi. Shuningdek, yozuvchining yaqin o'tmish tarixidan so'zlovchi "Taqdir kimning qo'lida" hikoyasi qahramoni Qulahmatning achchiq taqdiri kitobxonni larzaga soladi. Asqad Muxtor bu hikoyasida ham ma'naviy–axloqiy, ijtimoiy–psixologik tahlillarga keng o'rin beradi. Xususan, bu badiiy–falsafiy g'oyalar talqini "Taqdir kimning qo'lida" hikoyasida bo'rtib ko'rinadi. Hikoya ellikdan oshgan, na oilada, na jamiyatda baxt topmagan, omadi chopmagan Qulahmatning ayanchli hayoti va taqdiridan so'zlaydi. Qulahmat – santexnik, topgan puliga ichadi, ulfatlari bilan ichishib, keyin mushtlashib, urishib, ko'zini ochganida doimo hushyorxonada yotgan bo'ladi. Hikoya qahramoni yosh leytenant uni "Taqdir odamning o'z qo'lida" ekaniga ishontirib, Qulahmatni o'ylashga, boshqacharoq yashashga, fikrlashga majbur qiladi. Bu qahramonning ichki monologida shunday aks etadi: "Hozir yotdi–yu, yosh leytenantni o'ylab ketdi: yaxshi bola. Milisaga sira ham o'xshamaydi. Taqdir odamning o'z qo'lida emish... Jo'n gapini qara. Hay, to'xta, bordi–yu chindan ham shunaqa bo'lsa–chi? Eh–he... Aytishga oson. Sodda–da, nimani ham ko'ribdi. Nima bo'lsa ham, bolani qiynamasligi kerak. Yo'q! Endi boshqacha yashaydi, gap bitta!"[6:43] Qulahmat o'zining chirkin hayotini tark etib, Chirchiqqa yo'l oladi. Chunki, u yosh leytenant dashnom berganidek taqdirini yaxshilashga harakat qiladi. U Chirchiqda "Fayz" kooperativiga ishga joylashadi. Qulahmatning hayoti ancha o'zgara boshlaydi. Muallif bayonida berilganidek: "Shunday qilib ajoyib odamlar orasiga tushib qoldi Qulahmat. Bunaqangi omad tushiga ham chalingan emasdi. Uy–xo'jalik ishlarining o'nlab xillarini bajarib turgan "Fayz" kooperativini butun shahar

bilardi. "Fayz"danman, chaqirganmidingiz?" desa qo'li gul bolalarga hamma eshiklar lang ochiq. Qulahmat ikki oy deganda umrida kiymagan kostyum oldi, hushyorxonalarda qirilaverib unutilib ketgan sochlari ham qorayib chiqdi. Chakkalarigina jinday kumushrang edi. Yuzidagi, bo'ynidagi yaralar chandiqsiz bitib ketdi. Ammo yuzaki o'zgarishlar, yuzadagi yaralar ekan.

Ularning bitmaydiganlari borligini oddiy bir telefon qo'ng'irog'i eslatib qo'ydi''

Mavzu atamasi – asarda aks ettirish uchun ijodkor tomonidan hayotdan saralab olingan voqea–hodisalar (voqelikning asarda tasvirlangan bo'lagi) [9:100] dir Mavzu – badiiy asar bilan hayotni bir–biriga bog'lovchi vosita. Shunga ko'ra, badiiy asarning tematik tahlili jarayonida san'atning voqelikka estetik munosabati haqida fikr yuritiladi.

Asqad Muxtorning ba'zi hikoyalari nomidan asar nima haqida ekanligini bilishimiz mumkin ba'zida esa aksincha.Masalan, „Dunyo bolalari'' hikoyalar to'plamidagi „Rog elefant'' qasosokor fil haqida, „Klarisa" ushbu ismli ayol haqida, „Gavrosh" bu ism Viktor Gyugoning ''Xo'rlanganlar " asari qahramoni nomidan olingan bo'lib, yozuvchi ushbu hikoyasidagi qahramonni unga o'xshatadi.

Xulosa qilib aytsak Asqad Muxtor hikoyachiligi nihoyatda serqirra hisoblanadi. Asqad Muxtor o'zbek hikoyachilik xazinasini mazmun va shakl jihatdan boyitgan, uni yangi bosqichga olib chiqqan yirik adiblardan biridir. Uning ijodiy merosida hikoya janri alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining "To'qqizinchi palata", "Fano va baqo", "Dog'", "Insonga qulluq qiladurmen", "Ko'k tosh", "Qora domla", "Jinni", "Taqdir kimning qo'lida", "Chodirxayol", "Makruh" kabi o'nlab nodir hikoyalari orqali nafaqat adabiy sohada o'z o'rnini mustahkamladi, balki milliy hikoyachilik an'analarida yangi yo'nalish va uslubiy yondashuvlarni shakllantirdi.

Asqad Muxtor butun ijodiy faoliyati davomida roman, qissa, hikoya kabi prozaning turli janrlarida faol ijod qildi. Uning qalamiga mansub asarlar soni yuzlab bo'lsa–da, ayniqsa hikoyalaridagi mahorat, shakl mukammalligi va ruhiy tahlil chuqurligi adabiyotshunoslar uchun alohida qiziqish uyg'otadi. Adibning hikoyalari soni jihatidan qariyb qirqdan ortiq bo'lsa, shulardan o'ndan ziyodi yuksak badiiy darajaga ega, professional yozuvchilik namunasidir.

Asqad Muxtor hikoyalarida inson qalbining eng nozik qirralari, ruhiy to'lqinlanishlar, hayotning murakkab va dramatik holatlari o'ta mohirona, badiiy ta'sirchanlik bilan tasvirlanadi. Uning har bir hikoyasi nafaqat bir voqelikni aks ettiradi, balki murakkab ijtimoiy–psixologik muammolarni ochib beradi, o'quvchini fikrlashga, teran mulohazaga chorlaydi.

Masalan, "Dog'" hikoyasida insonni ich–ichidan ezib turadigan vijdon azobi va o'tmish xatolari, "Insonga qulluq qiladurmen"da tarixiy shaxslar orqali inson qadri va davlat, ilm, aqlning nisbiy mohiyati, "Qora domla"da jamiyatdagi ruhoniy va siyosiy zulmga nisbatan fikr erkinligi, "To'qqizinchi palata"da inson

erki va tibbiyot orqali yoritilgan ruhiy muammolar kabi masalalar katta mahorat bilan o‘z ifodasini topgan [8:116].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Asqad Muxtor hikoyalaridagi obrazlar psixologik jihatdan mukammal, ichki qarama–qarshilik va ruhiy ziddiyatlar bilan to‘la bo‘lib, ularni o‘qish jarayonida o‘quvchi nafaqat voqealar rivojiga guvoh bo‘ladi, balki har bir qahramonning ichki olamiga chuqurroq kirib boradi. Uning har bir hikoyasida hayot haqiqatini badiiy umumlashtirish, xarakterlar orqali zamonaviy inson tabiati va uning muhit bilan munosabatini tadqiq qilishga intilish namoyon bo‘ladi.

Asqad Muxtorning hikoya janrida olib borgan badiiy–ijodiy izlanishlari, yaratiqlari va shakl–uslub borasidagi topilmalari hozirgi kundagi adabiyotshunoslik ilmi uchun boy ilmiy manba bo‘lib xizmat qilmoqda. Uning hikoyalari orqali nafaqat o‘sha davrdagi jamiyat, balki insoniy qadriyatlar, ma’naviy qiymatlar hamda milliy ruh anglanadi. Shu ma’noda, Asqad Muxtor hikoyalari badiiy namuna sifatidagina emas, balki milliy adabiyotimizning ilmiy asoslarini mustahkamlaydigan muhim adabiy meros sifatida ham katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. A. Muxtor Qora domla / Insonga qulluq qiladurmen. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.2020. –98 b.
2. Adabiyot nazariyasi. Ikki tomlik. I tom. – Toshkent: Fan, 1978. – 416 b
3. Asqad Muxtor. Chodirxayol. 3–nashr Toshkent “O‘zbekiston”. 2021. –191 b.
4. Asqad Muxtor. Dunyo bolalari. Qayta nashr. Toshkent. “ O‘zbekiston”. 2021. –160 b.
5. Asqad Muxtor. Tanlangan asarlar. Toshkent. “Assaxiy”. 2021. –186 b
6. Behzod Fazliddin., Vaqt insonsiz hech narsa!, www.kh–davron.uz
7. Muxtor A. Hayotga chaqiriq /. – Toshkent: O‘zbekiston SSSR davlat nashriyoti, – 195 b.
8. O.Sharafiddinov. Dovondagi o‘ylar. –Toshkent: Ma’naviyat, 2000. –525b.
9. Sirojiddin Ahmad. Ubaydulla Xo‘jayev//. Jahon adabiyoti jurnali, 2008, №8
10. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. –262 b.
11. Xayriddin Sulton. So‘zi o‘lmaganning o‘zi ham o‘lmas // «HURRIYAT». 2020 . № 49. – 6b.
12. Лев Николаевич Толстой. Полное собрание сочинений. Том 58 Государственное издателство «Художественная лиютура» Москва – Ленинград 1934. –345 с
13. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/asqad-muxtor-1920-1997/asqad-muxtor-fano-va-baqo-hikoya